

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7832912>

Shakirova Sahobat

Sirdaryo tuman IIV ga qarashli akademik litseyi

“Tarbiya va Huquq” fani o`qituvchisi

“Kimki axborotga ega bo’lsa, u dunyoga egalik qiladi”, – degan fikr bugungi kunda barcha tomonidan e’tirof etilgan. Shunday ekan, bugungi kunda yoshlarda axborot olami imkoniyatlaridan oqilona foydalanish malakasini shakllantirish hayotiy-amaliy ahamiyatga ega.

Internet bugungi axborot makonining muhim bo’g’iniga aylandi. 50 millionlik auditoriyaga erishib, ommalashish uchun radioga 38 yil, televideniye 13 yil, kabel televideniye 10 yil kerak bo’lgani holda, bu bosqichni internet 5 yilda bosib o’tdi. Internet odamlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq-atvorlariga ta’sir ko’rsatishda katta imkoniyatlarga ega. Internetning bugungi kundagi rivoji g’oyaviy ta’sir o’tkazishning miqyosi va ko’lamining keskin darajada o’sishiga olib keldi.

Axborot – inson o’z sezgi organlari orqali qabul qiladigan barcha signallar majmuasi.

Radio, televideniye, telefon, internet kabi axborot tarmoqlari orqali uzatilayotgan ma’lumotlar turli ko’rinishga ega. Ular orasida matn, surat, video, turli belgilar tizimi va boshqalar mavjud. Kinematografiya bugungi kunda ma’lumot uzatishning eng intensiv usuliga aylandi. Kino nafaqat ma’lumot uzatish, balki tarbiyalash, mafkura, dunyoqarash va e’tiqodni shakllantirish vazifasini ham bajarmoqda.

Jahon veb-auditoriyasining 45%ini 25 yoshgacha bo’lgan shaxslar tashkil etadi. Mazkur o’smirlarning 68% har kuni kimgadir SMS-xabar jo’natadi, 51% ijtimoiy tarmoqlarga kiradi, 30% elektron pochtdan foydalanadi.

Turli missioner tashkilotlar kinematografiya orqali har xil ko’rinishda o’z g’oyalarini ilgari surishlari – ochiq-oydin ishora qilish, yashirin, psixologik ta’sir o’tkazish va boshqa yo’llar bilan amalga oshirishlari mumkin. Har bir oilada sevib tomosha qilinadigan turli g’arb va boshqa davlatlarning seriallarida oilaning do’sti ruhoni barcha muammolarni hal etadigan, oila a’zolarining sir-asroridan xabardor shaxs sifatida targ’ib etiladi. Yoki hind kinolarida biror-bir dinning sig’inish marosimi (fil, maymun, sigir yoki boshqalar vositasida) ko’rsatiladi va ular xaloskor sifatida talqin etiladi.

Bugungi kunda virtual olamda 1 mlrd.dan ortiq internet saytlar mavjud bo’lib, har oyda o’rtacha 201,4 trln. videorolik ko’rib chiqiladi, har kuni 144 mlrd. elektron maktub jo’natiladi.

“Axborot urushi” iborasini ilk bor fizik olim Tomas Ron qoʻllagan. U 1976-yilda ushbu masalaga barcha masʼul kishilar eʼtiborini qaratdi.

Internet orqali amalga oshiriladigan va katta mablagʻ talab qilmaydigan gʻoyaviy taʼsir va tazyiqning oʻziga xosligi shundaki, u oʻquvchi, tinglovchi yoki tomoshabinga sezdirilmasdan amalga oshiriladi va bevosita qurbonlarni keltirib chiqarmaydi. Axborot urushi dushmanni yoʻq qilmagan, katta xarajatni talab qilmagan holda, yuqori samara beradi. Bunda gʻoyaviy taʼsir yoʻnaltirilgan mamlakatlar aholisining xohish-istaklari, mentaliteti, mavjud muammolari jiddiy oʻrganilgan holda, asosiy diqqat kishilar ongi va dunyoqarashiga taʼsir koʻrsatishga, shakllangan qadriyatlarni oʻzgartirishga, ularning regulyatorlik rolini kamaytirishga yoki butunlay yoʻqqa chiqarishga qaratiladi.

Kibernetika (yunoncha, boshqarish sanʼati) – axborotni qabul qilish, uni qayta ishlash hamda undan turli jarayonlarni boshqarishda foydalanish bilan shugʻullanadigan fan.

Bugun axborot ham isteʼmol qilinadigan tovarga aylangan ekan, har bir inson oʻzida uni isteʼmol qilish madaniyatini tarbiyalashi lozim. Yoshlar shaxsiy xarakterdagi axborot himoyasi boʻyicha bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishi, oʻzi foydalanayotgan salbiy axborotlardan himoyalana olishi zarur.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-yanvardagi 10-son Qarori bilan “Oʻzbekiston Respublikasi hududida diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish faoliyatini amalga oshirish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom tasdiqlangan. “Kasperskiy laboratoriyasi”ning guvohlik berishicha, Oʻzbekistonda kiber xurujga uchrayotganlarning 1,6 foiziga bank-troyanlari zarar yetkazmoqda. Mobil qurilmalar xavf-xatari geografiyasiga muvofiq, Oʻzbekistondagi mobil qurilmalarga har yili 1000 tadan 50 mingtagacha virusli ilovalar ziyon yetkazadi.

Kibermakon kompʻyuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan muloqot maydonini ifodalovchi voqelik sifatida 1990 yildan boshlab keng miqyosida rivojlanib, takomillashib kelmoqda.

Ijtimoiy nuqtai-nazardan kibermakon deganda kompʻyuter tarmogʻi orqali bir-biri bilan bogʻlangan va bir vaqtning oʻzida turli geografik nuqtada kesishuvchi har qanday mavjud kompʻyuterning grafik sifatidagi maʼlumotlariga oʻralashib qolgan kishilar jamoasi tushuniladi.

“Kibermakon”da din niqobidagi “kiberhujum”lar tahdidi - din niqobi ostidagi ekstremistik tashkilotlarning saytlarida asosan davlat toʻntarilishi va xunrezlik urushlari haqida gap boradi. Jumladan, bugungi kunda dunyoda eng katta xavf solib turgan ISHID guruhining internet kibermakonidagi axborot hujumi va tahdidini keltirib oʻtish mumkin. Ularda ISHID goʻyo Islom yoʻlida “qurbon” boʻlayotgani aks etgan videolavhalar va fotosuratlar joylashtirilgan.

Bugungi kunda ekstremistik tashkilotlarning targʻibot-tashviqotlari kun sayin avj olib bormoqda. “Odnoklassniki”, “Facebook”, “Instagram”, “Twitter”, “Vkontakte” ijtimoiy tarmoqlarida buzgʻunchilik va yot gʻoyalarni targʻib qiluvchi yuzlab guruhlar

mavjudligi fikrimizning yaqqol dalilidir. Ularning asl maqsadlari, Islom dinini noto'g'ri, qabih maqsadlarda talqin etish, dinga siyosiy tus berib, hokimiyatni qo'lga kiritish hisoblanadi.

Keyingi paytlarda ilmiy manbalarda tez-tez “axborot iste'moli madaniyati” atamasi qo'llanayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Unga ko'ra, har kim o'zi e'tiqod qiladigan mafkura tarqatuvchisi va targ'ibotchisidir.

Axborot iste'moli madaniyati, eng umumiy ma'noda, axborot oqimidan inson manfaatlari, kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni qabul qilish, saralash, tushunish va talqin etishga xizmat qiladigan bilimlar, qobiliyat va malaka tizimini anglatadi.

Axborotni qabul qiluvchi o'zi, atrofdagilar, yaqinlari, xalqi, yurti manfaatlarini himoya qilishi, shunga mos va xos ma'lumotlarni tanlashni bilishi, o'zlashtirishi va tarqatishi lozim. Bu, o'z navbatida, tarbiyaga bog'liq. Bugun yoshlarga “Bu axborotni kim taqdim qilmoqda?”, “Nima uchun taqdim qilmoqda?” va “Qanday maqsadda taqdim qilmoqda?” degan savollarni o'z-o'ziga berishi, unga asosli javob topishga harakat qilishni o'rgatish kerak bo'ladi. Ana shundagina turli g'oyalar ta'siriga tushib qolish ehtimoli kamayib, taklif etilayotgan ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashishning oldi olinadi. “Axborot tashnaligi”ga barham beriladi.

Yosh avlodda bu jihatlar shu darajada shakllangan va qaror topgan bo'lishi lozimki, ular vertual makonda umummilliy manfaatga xizmat qiladigan, uning taraqqiyotiga yordam beradigan axborotni tanlay olsin. Faqat shundagina, globallashuv jarayonlarida yoshlarning ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashish, ularni noto'g'ri talqin qilishining oldi olinadi. Axborot iste'moli madaniyatiga ega yoshlar, salbiy va noxolis axborotlar ta'siriga tushib qolmaydi, chunki ularda bunday axborotlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanadi.

Ayni paytda, axborotlashuv jarayoni qo'yidagi muammolarni ham keltirib chiqaradi:

Birinchidan, mualliflik yoki intellektual mulk huquqi buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu hol bugungi kunda internet orqali tarqatilayotgan ma'lumotlarning to'g'ridan-to'g'ri olinishi misolida ko'rinmoqda. Mualliflar huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar, plagiatlikni aniqlash programmalari tabiiy zarurat tufayli vujudga kelgan.

Ikkinchidan, tekshirilmagan, noxolis ma'lumotlarning keng tarqalishi ehtimoli ortadi. Aslida, internet tarmoqlari mualliflardan mas'uliyatni cheklaydi. SHunga muvofiq internet jurnalistikasi rivojlanmoqda.

Uchinchidan, maxfiy, shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy ravishda e'lon qilinishiga olib keladi. Bundan ba'zan moddiy manfaatdorlik yoki ko'zlangan aniq maqsadga erishish, jumladan, biror shaxsni obro'sizlantirish nazarda tutiladi.

To'rtinchidan, din niqobidagi ekstremizm, missionerlik hamda “ommaviy madaniyat” targ'iboti ortadi. Bu esa ma'naviyatga, milliy va diniy qadriyatlarga, azaliy urf-odat va an'analarga qarshi qaratilgan to'g'ridan-to'g'ri tahdiddir.

Beshinchidan, ma'naviy, milliy qadriyatlarga putur etadi. Masofaviy muloqot, faqat hurmatdan iborat munosabat shakli ota-onaga xizmat, yaqinlar diydoriga intilish, hashar, muhtojlarga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish kabi qadriyatlarimizga ma'lum darajada ziyon etkazadi. SHu sababdan yurtimizda qadriyatlarga sadoqat, milliylikka hurmat tuyg'ulari targ'ib qilinadi.

Yuksak axborot texnologiyalarini jamiyat hayotining turli sohalariga joriy etish – davr talabi. Ammo uning ham o'ziga xos jihatlari bor. Jumladan,

- uning natijasida jismoniy mehnat hajmi keskin qisqaradi. Bu esa ishsizlikning ortishidir. Demak, amaliyotga ilm-fanning eng so'nggi natijalarini joriy etish barobarida yangi ish o'rinlarini yaratish ustida jiddiy bosh qotirish ham muhim hisoblanadi;

- yuksak darajada texnik imoniyatlarga ega bo'lish mehnat, ishlab chiqarish jarayonini osonlashtiradi, inson uchun murakkab va qiyin bo'lgan ishlarni texnika o'z zimmasiga oladi va insonlarning aqliy faoliyati uchun keng yo'l ochiladi.

- dunyo xalqlari bilan muloqot almashinuvi osonlashadi, tezlashadi. Jahondagi istalgan mamlakat kutubxonalarida saqlanayotgan nodir va muhim kitoblardan foydalanish imkoniyatlari yaratiladi;

- madaniyatlararo aloqalar rivojlantiriladi, mustahkamlanadi. Dunyo yaqinlashadi.

Demak, har bir olingan ma'lumotni tekshirib, asosli yoki asossiz ekanini aniqlamay turib, o'sha ma'lumotga qarab ish tutish turli muammo va javobgarliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Chunki bunda xabar tarqatayotgan kishining g'arazli maqsadini amalga oshirishiga zamin yaratib qo'yiladi.

Shunday ekan, dunyoning turli mintaqa va hududlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ziddiyatli to'qnashuvlarga teran qarash hissini oshirish, har qanday ko'rinishdagi tahdidlarga qarshi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, ayniqsa bu borada kelajagimiz hisoblangan yosh avlodni, bir so'z bilan aytganda har birimiz uchun muqaddas bo'lgan oilamizni din niqobi ostidagi yot g'oyalar ta'siridan asrash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni yanada rivojlantirish kelgusida jamiyatimiz oldida turgan muhim va ustuvor vazifalardan ekanini ta'kidlash zarur:

- yoshlarning axborot muhitidagi ijtimoiy ongini monitoring qilish tizimini shakllantirish;

- o'sib kelayotgan avlodning media-savodxonligini muntazam oshirib borish;

- virtual axborot hududida yoshlarning ustuvor nuqtai-nazarlari va qiziqishlarini muntazam o'rganish;

- kelajak avlodning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga zarar yetkazuvchi axborotdan aholini himoya qilish;

– yoshlarning ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi "ommaviy madaniyat" tahdidi va yot oqimlarning haqiqiy mohiyatini fosh etuvchi ma'lumotlarni yetkazish tizimini yo'lga qo'yish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

11-sinf Tarbiya darsligi. IIV mas'ul xodimi F.Y.Elmirzaev "Kibermakonda axborot iste'mol qilish madaniyati" mavzusidagi maqolasi.

Qo'shimcha dabitotlar: Curry, A. va Mur, C. (2003). Axborot madaniyatini baholash - izlanuvchan model. Axborotni boshqarish bo'yicha xalqaro jurnal, Jild 23 № 2, 91-110 betlar;

Rayt, T. (2013). Davlat tashkilotidagi axborot madaniyati. Yozuvlarni boshqarish jurnali, 23(1), 14-36; Oliver, G. (2011), Axborot menejerlari uchun tashkiliy madaniyat. Chandos nashriyoti

Ginman, M. (1988). Axborot madaniyati va ish samaradorligi. IATUL har chorakda, 2(2), 93–106; Guo, Tsixiu va Jon D'Ambra. "Milliy va tashkiliy madaniyatlarning texnologiyadan foydalanishga ta'siri". Jahon axborot menejmenti jurnali 17.4 (2009): 74-94. Internet.<http://www.igi-global.com/article/influence-national-organizational-cultures-technology/37216>

Davenport, T. H. (1994). IT ruhini tejash: insonga asoslangan axborotni boshqarish. Garvard biznes sharhi, 72(2), 119-131; Choo, CW (2013). Axborot madaniyati va tashkiliy samaradorlik. Axborotni boshqarish bo'yicha xalqaro jurnal, 33, 775-779.

Kronin, B. va Davenport, E. (1993). Ijtimoiy aql. Axborot fanlari va texnologiyalarining yillik sharhi (ARIST), 28, 3-44

Nonaka, I. (1994) Tashkiliy bilimlarni yaratishning dinamik nazariyasi. Tashkilot fanlari, 5(1), 14-37; Leydner, Doroti E va boshq. EISning tashkiliy razvedka, qaror qabul qilish va tuzilishga ta'sirining multikultural istiqboli. 1-nashr. Fonteynbo: INSEAD, 1997 yil.https://flora.insead.edu/fichiersti_wp/inseadwp1997/97-98.pdf

Choo, C. W., Bergeron, P., Detlor, B., & Heaton, L. (2008). Axborot madaniyati va axborotdan foydalanish: Uchta tashkilotning tadqiqot tadqiqotlari. Amerika Axborot Fanlari va Texnologiyalari Jamiyati jurnali, 59(5), 792-804.